



UDK:811.512.133:37.091.33:37.014.1:930.85

Shaxnoza DJO'RAYEVA,

Toshkent Amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: shaxnoza.djuraeva.82@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, prof. M.Axmedova taqrizi ostida

HERMENEUTIC APPROACH TO METHODOLOGICAL DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC WORLDVIEW IN THE CONTENT OF MOTHER LANGUAGE EDUCATION

Аннотация

To be able to use the scientific and theoretical foundations of mother tongue education, the most convenient and modern methods of teaching at different stages of education, to teach the methodology of teaching the uzbek language based on the professional requirements for future teachers of the uzbek language. It consists of teaching effective methods, forms and methods of teaching the content of the language at the level of modern requirements, highlighting the pedagogical and methodological possibilities of their implementation.

Key words: Language, thinking, coherence, word, tool, product, material entity, learning process, uzbek language unit, discourse, student, hermeneutic teaching, acquisition, language as a social phenomenon, quality, introduction, important importance, uzbek language educational content, scientific outlook, clear understanding, help.

ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К МЕТОДОЛОГИЧЕСКОМУ РАЗВИТИЮ МИРОВОЙ НАУЧНОЙ НАУКИ В СОДЕРЖАНИИ РУНОЯЗЫЧНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Уметь использовать научно-теоретические основы обучения узбекскому языку, наиболее удобные и современные методы обучения на разных этапах обучения, преподавать методику преподавания узбекского языка с учетом профессиональных требований к будущим учителям узбекского языка. Оно заключается в обучении эффективным методам, формам и методам обучения содержанию языка на уровне современных требований с выделением педагогических и методических возможностей их реализации.

Ключевые слова: Язык, мышление, связность, слово, инструмент, продукт, материальная сущность, процесс обучения, языковая единица, дискурс, ученик, герменевтическое учение, усвоение, язык как социальное явление, качество, внедрение, важное значение, образовательное содержание узбекского языка, научный кругозор, ясное понимание, помощь.

ONA TILI TA'LIM MAZMUNIDA ILMIY DUNYOQARASHNI METODIK RIVOJLANTIRISHGA OID GERMENEVTIK YONDASHUV

Аннотация

Ona tili ta'limining ilmiy-nazariy asoslarini, o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta'limning turli bosqichlarida qo'llay olishni, bo'lajak Ona tili o'qituvchilariga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida Ona tili o'qitish metodikasi ta'lim mazmunini zamon talablari darajasida o'qitishning samarali metodlari, shakl va usullarini o'rgatish, ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Kalit so'zlar: Til, tafakkur, uzviylik, so'z, vosita, mahsul, moddiy borliq, o'quv jarayoni, til birligi, nutq, talaba, germenevtik ta'limot, o'zlashtirish, tilni ijtimoiy hodisa, sifat, tanishtirish, muhim ahamiyat, ona tili ta'lim mazmuni, ilmiy dunyoqarash, aniq tushunish, yordam berish.

Kirish. Ta'limda bo'lajak ona tili o'qituvchilarining modul-kredit tizimidagi metodik tayyorgarligini jadallashtirish, didaktik-pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishga tayyorlashning mustaqil hamda o'quv topshiriqlar tizimini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida "...ta'lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish" alohida ta'kidlangan. Zero modul-kredit ta'limida mustaqil ta'lim topshiriqlari global masalalar sirasida markaziy o'rinni egallaydi. Respublikamizda bo'lajak Ona tili o'qituvchilari uchun Ona tili o'qitish metodikasi fanini o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida fan bo'yicha qo'yilgan o'quv materiallari talabalar tomonidan mustaqil o'rganiladi, amaliy ishlar talabalar tomonidan individual tarzda bajariladi. Ona tili ta'limining ilmiy-metodik asoslarini, o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta'limning turli bosqichlarida qo'llay oladi. Bo'lajak Ona tili o'qituvchilarga modul-kredit tizimini keng joriy etish, yangi Renessans poydevorini qurishda, pedagogik va metosik shart-sharoit talabalarni mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ona tili o'qitish metodikasiga oid kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni metodik rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomillashishiga olib kelish ko'zda tutilgan. "Ona tili o'qitish metodikasi" fani nutqiy metodik kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomillashishiga olib kelish ko'zda tutilgan. Ona tili o'qitish metodikasida o'rganishga qo'yilgan aniq malaka talablari asosida (tinglab tushunish), (gapirish), (o'qish) va (yozish) ko'nikmalari

metodik imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatib turibdi. Bu esa, o'qitishda metodik kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimi va texnologik modelini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishning, pedagogik-didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 22 oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-ardeldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son va 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to'g'risida"gi RQ-4623-son Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF 60-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmon ona tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari haqidagi qarorlari, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi. Ona tili o'qitish metodikasi ta'lim mazmunida O'zbekiston Respublikasi oliy

o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi uchun Umumiy kasbiy modullar blogining davlat ta'lim standarti asosida tuzilgan. Ona tili o'qitish metodikasi ta'lim mazmunini o'qitishdan maqsad Ona tili ta'limining ilmiy-nazariy asoslarini, o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta'limning turli bosqichlarida qo'llay olishni, bo'lajak o'qituvchilarga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida ona tili fanini zamon talablari darajasida o'qitishning samarali metodlari, shakl va usullarini o'rgatish, ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Talabalarda Ona tili ta'lim mazmunini, o'qish metodlari, usullari, ularning metodil-nazariy asoslari, ona tilining ta'lim mazmunida tutgan o'rni, ona tilning har bir sathi doirasida o'quvchilarga beriladigan BKMLar majmuasi, innovatsion pedagogik faoliyatining nazariy-metodik asoslari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish metodikasi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish, egallangan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mustaqil ish ma'ruza va amaliy mashg'ulotlardan berilgan vazifa bo'yicha referat, mustaqil ish va taqdimot shaklida talabning individual bajaradigan ishi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator ona tili o'qitish metodikasiga doir ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, Sh.Yusupova va N. Dadajonova kabi tilshunoslar o'z tadqiqotlarida o'zbek tili ta'limi jarayonida talabalarining nutqi ustida ishlash metodikasi asosida o'qitishni targ'ib qilgan. A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavuddinova, V.Karimjonova kabi tilshunos olimlar esa ona tili o'qitish asosida mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. T.Yusupova gapning bosh bo'laklarini o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Ona tili ta'lim mazmunida metodik va nazariy ta'lim bo'yicha tadqiqotchi olimlar H.Ne'matov, A.G'ulomov, M.Qodirov, A.Nurmonov, A.Sobirov, B.Mengliyev, L.R.Raupova, B.To'xliyev, Sh. Yusupova, T.Ziyodova, O.Oxunjonova, D.Jumashev kabi tilshunos olimlarning ishlari shular jumlasidandir. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlar yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan ishlarni O.Roziqov, N.Mahmudov, R.Safarova, U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, H.Alavuddinova, R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, kabi tilshunos olimlar o'rganagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir dars mashg'ulot bo'yicha topshiriqlar bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar talabalarga taqdim etiladi. Ona tili o'qitish metodikasi ta'lim mazmunida topshiriqlarni va uslubiy ko'rsatmalarda keltirilgan ishlarni bajarish talab etiladi. Talabalar mavzular bo'yicha mustaqil ish va referatlar tayyorlaydi hamda himoya qiladi. Har bir talaba mustaqil ravishda o'z topshirig'ini bajaradi. Ona tili ta'lim mazmunida nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanib, olingan bilimlar quruq nazariya yoki shunchaki yod olish uchun emas, balki hayot davomida pedagogik-metodik kasbiy faoliyati jarayonlarida shunday bilimlarni ko'nikmalarni amaliyotda qo'llashdir. Talabalarga ta'lim-tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarashgermenevtik ta'limotni rivojlantirishdir. Bu vazifani metodik hal qilishda Ona tilining ta'limiy maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti talabani shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Quyiya ko'rsatilgan omillar tilni o'rgatish bilan bog'liq holda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish usulini belgilaydi: Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa (kommunikativ) vazifasini ifodalashdan iboratdir. OTMda filologik tilni o'rgatishning yetakchi yo'nalishi talabalar tomonidan tilning aloqa vazifasini bajarishini grammatik tushunishlariga erishish hisoblanadi. Til bilan tafakkur uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur so'z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurning mahsuli hisoblanib, ongandan tashqarida o'zicha yashamaydi. Til va tafakkur atrofimizni o'rab olgan moddiy borliqqa nisbatan ikkilamchidir. Tafakkur tashqi dunyoning tushunchadagi ifodasi hisoblanadi. So'z tushunchaning shartli nomini o'zida aks ettiradi. Dunyoda yo'q narsa ongda ham, tilda ham bo'lmaydi. Bu holat o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish asosini tashkil etadi va didaktik tamoyillardan birini, ya'ni til atrofni o'rab olgan muhitni, voqelikni kuzatish jarayonida faol bilish faoliyati vaziyatida o'rganilishini belgilaydi.

Ona tili ta'lim mazmunining barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so'z yasalishi) ni o'zaro bog'liq holda o'rganish Ona tilini o'rgatishdagi yetakchi tamoyil bo'lib, uni amalga oshirish talabalarining qorqalpoq tilni murakkab, rivojlanuvchan, o'zaro bog'langan muhim tomonlarga ega bo'lgan hodisa sifatida anglab etishlari uchun ilmiy asos yaratadi. Ona tili ta'lim mazmunining mohiyatini bunday idrok etish hodisalarining

rivojlanuvchanligi va o'zaro bog'langan qismlardan tuzilishini tushunishga zamin hozirlaydi. OTM va maktab tajribasi va maxsus tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida qayd etilgan dastlabki qoidalarini o'quv jarayonida amalga oshirishda ijtimoiy hodisa sifatida til haqidagi bilimlar majmuasini to'g'ri tanlash, asosiy til hodisalarini va turlarini tushuntirishda o'qituvchining tutgan metodologik yo'lining aniqligi, talabalar fikrlashini faollashtirish, til nazariyasini o'rgatishga asos bo'ladigan til materialining yuqori sifatli bo'lishi kabi dalillar hal qiluvchi ta'sir etadi. Shubhasiz, har bir omil maktab tajribasida bir-biridan ajralgan holda bo'lmaydi. Aksincha, ularning bir-biriga to'g'ri, maqsadga muvofiq ta'siri ijobiy natija beradi.

Tahlil va natijalar. Tilni ijtimoiy hodisa sifatida tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili ta'lim mazmunining ijtimoiy mohiyati uning aloqa vazifasini bajarishida ko'rinadi. Uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini aniq tushunishga yordam berish uchun quyidagi jihatlarga ahamiyat berish kerak:

o'quv jarayonida har bir til birligining nutqimizdagi o'rni talabalar o'zlashtirishini ta'minlash zarur. Talabalar tilning aloqa vazifasini tilning asosiy birliklari (fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi, gap)ning vazifasini tushunish jarayonida o'rganadilar.

talabalarining tilning o'zaro aloqa vositasi ekanligini tushunishlari «Til har bir kishi, umuman, jamiyat hayotida qanday o'rinni egallaydi?» savoliga javob topishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ona tili ta'lim mazmunida kishilarning birgalikdagi mehnat faoliyatida, yangiliklarni maslahatlashib tushunishda, yangi mashinalar ixtiro qilishda zarurligi haqida misollar topib, o'z fikrlarini tasdiqlaydilar. Yoshlari ulg'aygan sari talabalar odamning odam bo'lishida tilning ahamiyatini tushuna boradilar. Odam o'zining fikrlash faoliyatini rivojlantirish va nutqini o'stirish bilan o'zini doimo takomillashtirib boradi. Olamni, koinotni o'zgartira borib, kishi yanada kamol topa boradi, uning tili ham boyiydi. Kishilar bilan, jamiyat a'zolari bilan aloqa, munosabat har bir kishining o'sishi, rivojlantirishdagi zaruriy shartlardan hisoblanadi.

talabalarining tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarashini shakllantirishda tilning kelib chiqishi, tilda yangi so'zlarning paydo bo'lishi haqida ularning saviyasiga mos bo'lgan "sir" ni yechish (tushuntirish) ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi talabalarga tilning bir kishi tomonidan maxsus o'yab chiqarilmaganini, u itidoy odamlarning mehnat faoliyati bilan bog'liq holda yaratilganini va asta-sekin rivojlanib borganini tushuntiradi: "Bizdan juda uzoq vaqtlar ilgari tilda faqat bir necha o'ngina so'z mavjud edi, kishilar atrofidagi tabiatni, narsalarni bilib, ish qurollari yaratib, nimadir ishlab chiqarganlari sari tilda yangi so'zlar paydo bo'la boshladi. Atrofimizda mavjud bo'lgan shaxs va narsalarga, ularning belgilariga, jarayonga, juda ko'p boshqa narsalarga kishilar nom qo'yganlar. Shunday qilib, til yangi so'zlar bilan boyidi va boyib bormoqda". Ona tili ta'lim mazmunining rivojlanishi, ayrim so'zlarning ma'nolari haqidagi bilimni boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lni o'rganish jarayonida asta-sekin bilib oladilar. Bu o'rinda "So'zning tarkibi" bo'limi katta imkoniyatga ega. Talabalar bu bo'lim materiallarini o'rganish jarayonida tilimizning yangi so'zlar bilan boyib borishi haqidagi muhim manbalar bilan, so'z yasalishi bilan tanishadilar. Ma'lumki, ko'pgina yangi so'zlar tilda mavjud bo'lgan so'zlar zaminida yaratiladi, tilda bor qoliplar kabi yasaladi: limon tipida limonzor, suvchi tipida bo'zchi kabi. Tilda yangi so'zning paydo bo'lishi o'zidan keyin bir xil o'zakli so'zlar guruhining hosil bo'lishiga sabab bo'ladi: ishli, ishsiz, ishchi kabi. Boshlang'ich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus o'rganilmaydi. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratish muhim ahamiyatga ega. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan harakatchan, tez rivojlanadigan bo'lgani uchun, til leksikasi misolida boshlang'ich sinf o'quvchilari saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar yuzasidan o'qituvchi va o'quvchilarning kuzatishlari bolalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurini shakllantirishga mos material beradi.

Ona tili ta'lim mazmunida tilni o'zlashtirish jarayonini tekshirish shuni ko'rsatadiki, Ona tiliga ilmiy qarash asoslarini germenevtik rivojlantirishning muhim bog'lanishlarini bilishga ham yordam beradi. Xususan, talabalarining so'zning tovush tomoni bilan uning leksik ma'nosi, so'zning morfemik tarkibi bilan leksik ma'nosi, so'zning grammatik ma'nosi bilan uning ma'lum so'z turkumiga tegishliligi o'rtasidagi bog'lanish kabilarni bilib olishi shu maqsadga xizmat qiladi. Bu bog'lanish tilning fonetik, leksik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarining bir-biriga ta'sir qilishini xarakterlaydigan umumiy bog'lanishlarning xususiy ko'rinishi hisoblanadi. Shuni

ta'kidlash kerakki, o'quvchilarning xarakterli bog'lanishlarni tushuntirishlari tilni egallash nuqtai nazaridagina emas, balki dunyoqarashlarini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Tildan bilim berishda o'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir.

Talaba nazariy xarakterdagi umumlashtirish zarur bo'lgan daliliy materiallarni yig'ish bosqichida ham, berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun ham bolalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyotiga tayanadi. Tilga oid bilimni o'rganish natijasida talabalar nutq faoliyatining sifati o'zgaradi, ongliligi ortadi. Tilni o'rganishni hayot bilan bog'lash dunyoning moddiyligini tushunishga asos yaratadi. Bu bilan bir paytda Ona tili darslarining asosiy vazifalari-dan biri bo'lmish talabalarda to'g'ri kuzatish va o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda aniq bayon etish ko'nikmasini o'stirish masalasi hal qilinadi. Bunda o'qituvchidan talabalarda dialektik fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga alohida e'tibor berish talab etiladi. Keyingi yillarda talabalarning o'quv faoliyati tobora izlanish xarakteriga ega bo'lmoqda. Ona tili ta'lim mazmunini metodik rivojlantirishda talabalar uchun ayrim qoida va aniqliklarni yodlab olish emas, balki atrofda hayotni kuzatish asosida talabalarning o'zlari "topgan" yoki adabiy manbalardan tayyor olingan Ona tili ta'lim mazmunini materialini maqsadga muvofiq analiz va sintez qilish yetakchi hisoblanadi. O'rganiladigan grammatik va so'z yasashiga oid, leksik tushunchalarning mavjud belgilarini aniqlash jarayonida faol qatnashish, bilib olingan dalillarni o'xshash va farqli tomondan qiyoslash, shuningdek, o'rganilgan imiy-nazariy

bilimlarni har xil nutqiy faoliyatga metodik tatbiq etish – bularning barchasi talabalarda dialektik fikrlash ko'nikmasini o'stirish uchun zamin va shart-sharoit yaratadi. Bunda muhim omillardan talabalarning aqliy faoliyatini o'qituvchi tomonidan aniq maqsadga muvofiq boshqarish, ularda orfografik, grammatik yoki leksik-uslubiy vazifalarni hal qilishning umumiy metodlarini shakllantirish hisoblanadi.

Ona tili ta'lim mazmunini o'rganish jarayonida talabalarda ilmiy dunyoqarash asoslarini rivojlantirish masalasi hal qilishda maktabdan to OTMgacha Ona tili ta'lim mazmunini o'rgatishga asos bo'ladigan material ahvoda qimmatga ega. Materialning g'oyaviy yo'nalishi va badiiy ifodaliligi talabalarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg'ulariga tasir etadi, atrof-muhit haqidagi bilim-larini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, talabalarning umumiy taraqqiyoti darajasini o'stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining, dunyoqarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Keyingi yillarda Ona tili ta'lim mazmunini darsliklari va o'qituvchilar uchun nashr qilingan qo'llanmalar materiali mazmuniga qo'yilgan talablar anchagina ortdi.

Xulosa. Ona tili ta'lim mazmuni materialining asosiy mezon matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmatini, leksik-uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog'lanishi, matnlarning g'oyaviy-mavzuviy yo'naltirilganligi, talabalarning individual tipologik xususiyatlariga mosligidir.

ADABIYOTLAR

1. Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, Z.Rozmetova Ona tili ta'lim mazmunini takomillashtirish T.: Respublika ta'lim markazi. O'quv-uslubiy qo'llanma.T.: 2022.-144 b.
2. Axmedova M.E. Rasulova G.K.Kredit-modul tizimida o'zbek tili ta'limda mustaqil o'quv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish metodikasi. Uslubiy ko'rsatma, "Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ, 2022
3. Axmedova M.E. Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari (tilshunoslik fanlari misolida) Monografiya., Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi", MCHJ, 2022. 173 bet
4. Axmedova M.E. ARM faoliyatida tilshunoslik fanlaridan mustaqil topshiriqlar tuzishda modul-kredit tizimining joriy etilishi// O'zMU XABARLARI, 2022, 1/2/1, 95-97 betlar
5. Axmedova M.E. Oliy filologik ta'limda o'quv topshiriqlaridan foydalanishning lingvometodik va didaktik xususiyatlari// Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal. -№2 (86), Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyat bulimi, 2022, 470-472 betlar
6. Axmedova M.E. OTM filologik ta'limda o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-didaktik va pragmatik xususiyatlari. Akulova, A. A. konstruirovaniye situatsionnix zadach dlya otsenki kompetentnosti uchashixsya: uchebno-metodicheskoe posobie dlya pedagogov shkol. T.2008 g.153s.
7. Borovkov A., G'ulomov A., Ma'rupov Z., Shermuhammedov T. O'zbek tili grammatikasi. Yetti yillik va o'rta maktablarning 5-6-sinflari uchun darslik. I qism. Fonetika va morfologiya. –T.: O'zdamnashr, 1946. – 227 b.
8. Jalilov K.. Baholash nazariyasi asoslari. –T.: Akademnashr 2020, 252 bet.
9. Ziyodova T., va boshqa O'zbek tili o'qitish metodikasi. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun. O'quv qo'llanma – T.: Bayoz, 2012. – 152 b.